

SHEKSPIR TRAGEDIYASIDA REMARKALAR O'RNINI VA "HAMLET" TRAGEDIYASINING TAHLILI

Olimova Xadichabonu

Qo'qon universiteti Andijon filiali talabasi

Inomjonova Mohlaroy

Qo'qon Universiteti Andijon filiali talabasi

ARTICLE INFO

ARTICLE HISTORY:

Received: 10.04.2025

Revised: 11.04.2025

Accepted: 13.04.2025

ABSTRACT:

Ushbu maqolada Shekspir ijodiga xos fazilatlar kuylanadi. "Hamlet" tragediyasi badiiyati tahlil qilinadi.

KEYWORDS:

dramaturgiya,
tragediya,
tasvir, holat, konflikt,
Shekspir, Hamlet.

Drama adabiyotning ma'lum darajada taraqqiy etgan sohalaridan biridir. Barchaga ma'lumki, tragediya so'zi yunoncha tragoidia so'zidan kelib chiqqan bo'lib "echki qo'shig'i" degan ma'noni bildiradi. Chunki qadimgi Yunonistonda teatr ijrochilari echki terisidan tikilgan liboslar kiyishgan. Bugun teatr va adabiyotda tragediya adabiyot janrlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tragediya zamonaviy dramaning baxtsizlikka olib keladigan, markaziy muammolar xuddi qadimgi drama kabi qayg'uli yakun topib, asar qahramonining fojeasi millat tanazulli bilan tugaydigan asarlarga nisbatan ishlatiladi. Bunga esa, odatda, axloqiy zaiflik, psixologik moslashuv, ijtimoiy bosim o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shekspir tragediyasi o'ziga xosligi bilan boshqa fojeali asarlardan ajralib turadi. Shekspir tragediyalarida asarga xos barcha unsurlar ishtirok etadi. Fojeaga sababchi bo'luvchi qahramon tragediyaning eng muhim elementlardan biridir. Yozuvchining asarlarida fojeali qahramon, asosan, bir kishidan iborat bo'lib qahramon erkak yoki ayol bo'lishi mumkin. Fojeali qahramon muqarrar qism aziyat chekkan eng eng qayg'uli odam bo'lishi shart.

Mashhur olim Endryu Sesil Bredlining aytishicha, “Shekspir tragediyasi bu aslida hikoyadir. Shunday hikoyaki, azob –uqubat va ofat bilan yakun topadi”. Shekspir fojeali qahramonining muhim tomoni shundaki, u oddiy inson emas. U mamlakat shohi yoki mamlakatning obro’li, zodagon fuqarolaridan yoki taniqli shaxs. Misol uchun Hamlet-Daniya shahzodasi. U aqlli, ochiqko’ngil, kelishgan hamda mulohazali. Qahramon shunchalik muhim shaxski, uning o’limi butun boshli g’alayon va tartibsizliklarni keltirib chiqaradi. Hamlet otasining o’limi uchun amakisidan qasos olganida u, nafaqat, amakisiga, balki, o’ziga ham o’limni ravo ko’radi. Shekspir tragediyalarida ezgulik va yovuzlik o’rtasidagi kurash tasvirlangan. Uning aksariyatida yovuzlik timsollari yovuzlikning hukmronligi va yaxshilikni bostirish bilan shug’ullanadi. XIX asrning taniqli shoir va adabiyotshunosi Edvard Doudenning so’zlariga ko’ra Shekspir tomonidan o’ylab topilgan fojea inson hayotini va ruhini tiklashga qaratilgan fojeadir. Boshqacha aytganda, uning mavzusi dunyodagi yaxshilik va yomonlik o’rtasidagi kurashdir. Shekspir asarlarida hech qachon yaxshilik yovuzlik ustidan g’alaba qilmaydi. Shekspir tragediyalarining bosh qahramonlari halol va yaxshi insonlar. Asar qahramonining qiyinchiliklari, ko’rgan azoblari bizni unga hamdard bo’lishga chaqiradi. Yovuz odamlarning harakati bizni unga nisbatan g’azabimizni uyg’otadi.

Shekspir asarlari oradan qancha yil o’tsa-da, hech qachon kitobxonlar qo’lidan va qalbidan tushmay keladi. Drama adabiyotining ma’lum darajada taraqqiy etgan sohalaridan biridir.

Uiliam Shekspir - jahon adabiyotining eng yorqin siymolaridan biri. Uning ijodi jahon dramaturgiyasining gultojidir. Yosh avlodni Shekspir ijodiga oshno qilish - ma’sum, beg’ubor yuraklarga insof va adolat, mardlik va jasorat, sevgi va sadoqat, ezgulik va oliyjanoblik, bir so’z bilzn aytganda, yuksak insoniy fazilatlar urug’ini sochish demakdir.

Ingliz shoiri, dramaturgi Uiliam Shekspirning hayot yo’liga nazar tashlasak, Shekspir 1564-yilning 23-aprelida Stenford shahrida dunyoga kelgan. Otasi Jon Shekspir va onasi Meri Uiliamni asosan, til va adabiyot o’rgatiladigan maktabga qo’yishgan. Ulg’aygach esa o’zining shahridan bo’lgan Enn Xatauey ismli qiz bilan oila quradi va ular 3ta farzand ko’rishadi. Syuzen hamda egizaklar - Hamlet va Judit. 1592-yilda Shekspir Londonga boradi va teatrda aktyor bo’lib faoliyat yuritadi. Oradan bir yil o’tib 1593-yilda "Venera va Adonis" nomli dostoni chop etiladi va bu asar unga muvaffaqiyatlar eshigini ochib beradi. 1594-yilda yana bir katta asar

"Lukresiya" nomli dostonini e'lon qiladi va keyingi 3 yil ham unga omadli keladi. 1597-yilda Londonsahnalarini tark etgach, oilasi bilan birgalikda Stendforddan sotib olgan yangi uyiga ko'chib kelishadi, Londonlik tanqidchi hisoblanmish F.Meres o'zining "Aql xazinasi" kitobida Shekspirga quyidagicha fikr bildirganini aytib o'tish lozim: "Platav va Seneka rimliklar uchun komediya va tragediya borasida tengsiz bo'lgani singari Shekspir inglizlar uchun pyesaning har ikki turida ham beqiyosdir". Haqiqatdan ham Shekspir qalamiga mansub 36 dramatik asar, 154 sonet pyesalari va bir nechta dostonlari uning naqadar serqirra ijodkor ekanligini yaqqol namunalari sanaladi. 1603-yilda hattoki Qirol Yakobning nazariga tushgan Uiliam va uning guruh a'zolari "Qirol hazratlarining xizmatkorlari" deb atalib, saroy xodimlaridan hisoblanishgan. Ular bu saroyda tomoshalar ko'rsatib turishar va hammaning e'tiboriga tushishi natijasida amaldorlar, aslzodalar, aktyorlarni yaxshigina siylashar edi. Shu tariqa Uilyam o'zining moddiy ahvolini anchagina yaxshilab oladi va Londondan, Stenforddan bir qancha yer mulklariga ega bo'ladi, Vaqt o'tib keyinchalik mashhur aktyor asta-sekinlik bilan adabiy ijoddan ham, teatrdan ham uzoqlashadi, 1616-yil 23-aprelda esa iste'dodli shoir, tengsiz aktyor, buyuk dramaturg Uiliam Shekspir bu olamdan ko'z yumadi. Shekspirning yozgan asarlari ya'ni "Qirol lir", "Makbet", "Romeo va Juletta", "Otello", "Hamlet" kabi tragediyalari, "Yoz kechasidagi tush", "Venetsiya savdogari". "O'n ikkinchi kecha" singari komediyalari mana bir necha yillardirki dunyodagi eng dovuqli teatrlar sahnasidan tushmay keladi. Negaki jahon dramaturgiyasining bunday yetuk namunalari badiiy mahoratning cho'qqisi hisoblanadi

. Shekspirning asarlari inson tuyg'ularining qarama-qarshi, chigal hamda murakkab qirralarini ta'sirchan tarzda aks ettirishi bilan ajralib turadi. Shekspir yaratgan asarlar har yili dunyo bo'ylab ko'rsatiladigan son-sanoqsiz maktab, havaskor va professional spektakllar orqali davom etmoqda. Ularning bir nechtasi quyida birinchi marta bajarilgan taxminiy sanalari bilan birga kiritilgan. Darhaqiqat, buyuk nemis shoiri lohan Volfgang Gyote ta'riflaganidek, "Shekspir bepoyon "... uning merosi mana to'rt asrdirki dunyo xalqlarini o'ziga rom qilib kelmoqda. Shekspir tragediyaga sabab bo'luvchi shaxsni ko'rsatiladigan son-sanoqsiz maktab, havaskor va professional spektakllar orqali davom etmoqda. Ularning bir nechtasi quyida birinchi marta bajarilgan taxminiy sanalari bilan birga kiritilgan. Darhaqiqat, buyuk nemis shoiri Iohan Volfgang Gyote ta'riflaganidek, "Shekspir bepoyon "... uning merosi mana to'rt asrdirki dunyo xalqlarini o'ziga rom qilib kelmoqda. Shekspir tragediyaga sabab bo'luvchi shaxsni aniq tasvirlab bera oladi. Uning ko'pgina tragediyalarida

ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash tasvirlanadi. Shu tragediyalardan biri "Hamlet"dir. Bu fojia inson ruhini va hayotini tiklashga qaratilgan fojiadir, Boshqacha aytganda, bu asar yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurashdir. Shekspir asarlarida hech qachon yaxshilik yovuzlok ustidan g'alaba qozonmaydi. Bizni hamdard bo'lib, qahramonlar dardini his qildiradi oladigan asarlardan biri "Hamlet"dir.

"Hamlet"pyesasini rus tilidan o'zbek tiliga ilk bor 1934-yilda Abdulhamid Cho'lpon tarjima qilgan. Asarning 1948-yilda Maqsud Shayxzoda tomonidan rus tilidan o'zbek tiliga qilingan tarjimasi ham xalq orasida keng ommalashgan. Keyinchalik pyesani 1991-yil Jamol Kamol aslyatdan, ya'ni ingliz tilidan o'zbek tiliga o'g'irgan. Pyesa o'zbek tilida bir necha marta, jumladan, bir jildli "Tanlangan asarlar" (1983) (3-jild) hamda uch jildli "Saylanma" (2007) (1-jild) asarlarida bosilibchiqqan. Hamlet... Bu fojia juda halokatli undagi qahramonlarning xususiyatlari, xarakteri va o'y-fikrlari haqida to'liq ma'lumot berish uchun so'z yetarli emas bu olamda Hamlet hayot va o'lim orasidagi qasoskor ruh. Ammo asarni chin dildan tafakkur eta olgan kitobxon uchun Hamlet bir jangchi va qahramon sifatida taniladi. "Hamlet" - Daniya shahzodasi Hamlet tragediyasi. "Hamlet" Shekspirning eng uzun pyesasi bo'lib, ingliz adabiyotidagi eng kuchli va ta'sirli tragediyalardan biri hisoblanadi. Hamlet g'ururli aqlli, ochiqko'ngil va mulohazali inson. Amakisi tomonidan otasining o'ldirilganini bilgach dunyo ham, hatto sevimli Daniyasi ham zindondek tuyuladi. Daniya an'alariga ko'ra Hamletning onasi Gertruda Klavdiyga turmushga chiqadi. Bu Hamletga juda og'ir botadi. Ikkala do'sti ham Hamletga xiyonat qilgach, asar qahramoni faqat qilichiga va otasining ruhiga suyanadi, Biz asar qahramonidan sabr-matnatda dars olishimiz kerak. Hamlet komil inson deya olaman, bunga sabab shuki Hamlet g'azabda va xiyonat alimini tortayotgan bo'lsada amakisini ibodat vaqtida o'ldirmaydi. Hamlet juda madanyatli va bilimli bo'lganligi sababli ibodat vaqtida o'ldirilgan odam shahid bo'lishi va jannatga tushishini biladi. Shuning uchun amakisini o'ldirmaydi. Hamletning qayg'uga botganligi, uning ruhiy holati adabiyotning eng ruhiy jihatdan murakkab belgilaridan biridir. Qahramonni "yetti o'lchab bir kesadigan" odam desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki Hamlet otasi siymosidagi arvohning gaplariga ishonch hosil qilish uchun: amakisining otasini o'ldirish jarayonini aktyorlar orqali ifoda ettirib voqeaga ishonch hosil qiladi. U otasining o'limi tufayli hayot va o'lim o'rtasidagi qasoskor ruhdek bo'lib qoladi. Hatto o'zini umrbod jahannamda yashovchi ruhdek his qiladi, Ammo Hamlet ancha jabr ko'rgan bo'lsa-da, insoniy tuyg'ularini yo'qotmaydi, Hayotini izdan chiqargan, otasini o'ldirib onasiga uylanib olgan amakisini o'ldirishda ikkilanishi Hamletning

insoniylikiga misol bo'la oladi, Uning qismati ayanchli yakun topgan bo'lsa-da, o'mak olishga arziydigan qahramon. Hamlet niyatiga yeta olmay ayanchli o'lim topdi, Onasi va do'stlarining xiyonati tufayli Poloniyni o'g'li Laert tomonidan zaharlangan qilichda o'ldiriladi. Duel paytida hayajonlangan Gertruda Hamlet uchun tayyorlangan zahar solingan qadahdagi sharbatni ichib vafot etadi.

Xulosa qilib aytganda, Shekspir asarni shunchalik berilib yozganki, Hamletning yuragidagi qasos olovini his qila olamiz, Uning o'ylarini biz ham o'ylagandek, u bilan birga yuragimiz yonadi. Bu esa yozuvchining mahoratidan darak beradi. Shekspir bosh qahramon obrazini o'sha paytda eng yaxshi aktyorlardan hisoblangan Richard Burbage uchun moslashtirib yozgan. Pyesa yozilganidan beri o'tgan 400 yil o'tgan bo'lsada bir necha muvaffaqiyatli aktyorlar "Hamlet" rolini ri, ayniqsa ijro etgan, Shekspirning barcha asarlari, ayniqsa "Hamlet" tragediyasi hozirgacha kitobxonlar qo'lidan tushmay keladi. Chunki bu asarni qayta-qayta o'qigan sari yangi qirralari, yangi hissiyotlar qalbimizda uyg'onadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.QODIROV, A. (2025). BADIY ASAR TAHLILI VA DIN INTEGRATSIYASI:(Alisher Navoiy ijodi misolida). Hamkor konferensiyalar, 1(11), 386-388.
- 2.Qodirov, A. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. University Research Base, 857-860.
- 3.Abdulazizbek, Q. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(42), 144-149.
- 4.Qodirov, A., Inomjonova, M., & Olimova, X. (2025). ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIY ASAR TILI VA BADIY NUTQ USLUBI. Наука и технология в современном мире, 4(5), 36-38.
- 5.Kobilova, Z. B. (2021). Amiriy and fazliy. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 271-276.
- 6.Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 173-176.
- 7.Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In Конференции.

8.Haliljonovna, S. K. (2024). PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF FORMING INTERESTS IN VISUAL ARTS IN PRESCHOOL CHILDREN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(3), 438-442.

9.Жахонгирова, Тамила; ,ЭВОЛЮЦИЯ НЕГАТИВНЫХ ЭМОЦИЙ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ,Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi,11,2,18-20,2024,

10.Andreyevna, Jaxongirova Tamila; ,CURRENT TRENDS AND DEVELOPMENT FACTORS IN THE APPLICATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION,Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari,28,1,230-233,2024,

11 Khabibullaeva F.K. The Problem of Adequacy in Russian Translations of A. Kadiri's novel "The Past Days". Toronto. Design Engineering. 2022. – P. 6091-6101.

12.Abdullaevna, K. G. (2024). TRANSLATION CHALLENGES IN SCIENTIFIC AND TECHNICAL TRANSLATION WITH A FOCUS ON TERMINOLOGICAL DICTIONARIES. Science and innovation, 3(Special Issue 34), 178-181.

14.Toshboyeva, O. (2024). THE TERMINOLOGY, GENESIS, AND LINGUISTIC FOUNDATIONS OF "BRAND NAMES" IN THE WORLD OF LINGUISTICS. University Research Base, 992-995.